

Sherali Qo'ldashev

Oriental universiteti

*"Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrası professori,
tarix fanlari doktori, dotsent*

E-mail: sherali.kuldashev@mail.ru

"CHAQCHAQ" JANRI VA UNING ASKIYA SAN'ATI BILAN BOG'LIQ JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, uyg'ur xalqining xalq og'zaki ijodi va qiziqchiligida – chaqchaq janrining askiya san'ati bilan bog'liq masalalari yozilgan. Unda chaqchaq san'atining tarixi, tadqiqotchilari, turlari, o'ziga xos jihatlari turli tarixiy adabiyotlar va maqolalar asosida tahlil qilingan. Chaqchaq va askiya san'atidagi o'xshash jihatlari ilmiy asosda dalillangan.

Kalit so'zlar: askiya, chaqchaq, san'at, janr, qiziqchilik, tahlil, xulosa.

THE "CHAQCHAQ" GENRE AND ITS RELATION TO THE ART OF ASKIYA

Abstract. This article examines issues related to the connection between the chaqchaq genre and the art of askiya within the framework of Uyghur oral folk creativity and comic performance traditions. It analyzes the history of chaqchaq, its researchers, classifications, and distinctive features based on various historical sources and scholarly publications. The similarities between chaqchaq and askiya are substantiated through scientific analysis.

Keywords: askiya (Uzbek oral satirical dialogue genre), chaqchaq (traditional humorous folk performance), art, genre, comic performance, analysis, conclusion.

Uyg'ur va o'zbek xalqlarining kelib chiqishi bir bo'lib, tarixda Turk xoqonligi, Qoraxoniylar davrida bir davlat tarkibida yashashgan. Shu bois, tili, dini, urf-odatlar o'xshash bo'lgan bu ikki xalqning san'at yoki adabiy merosda ham birday voris hisoblanadi. Uyg'ur xalqi xuddi o'zbeklar singari Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab she'rlarini yodlab, kuylar bastalaganlar. Xalq og'zaki ijodi namunalariga

ham bu ikki xalq birdek voris hisoblanadi. Uyg'ur qiziqchiligida o'z o'rniga ega bo'lgan Chaqchaq san'ati aslida o'zbeklarning askiya san'ati kabidir. Chaqchaq san'ati bu uyg'urlarning avloddan-avlodga o'tib kelgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri hisoblanadi. Chaqchaq uyg'urlar orasida shunchalik keng tarqalganki, kundalik turmushini chaqchaqsiz tasavvur qilisha olmaydilar. O'zining shakli bo'yicha chaqchaq san'atida xuddi askiya san'ati singari ikki yoki undan ko'p bo'lgan xushchaqchaq kishilar qatnashadilar. Biroq, chaqchaq xarakter jihatdan kishilarning odatdagi suhbatiga emas. Aytilgan kulgi tabiiy kulgiga aylanishi lozim. Har bir aytilgan so'z jaranglab, ixtiyoriy ravishda tabiiy kulgini yuzaga keltirishi lozim. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida shunday so'zlar uchraydi: "Kug degan so'zni izohlaganda, "har yili shahar xalqlari orasida aytilib yuradigan har xil qiziqchilik..." [1, 116-b].

Chaqchaq san'ati tadqiqotchilari To'xta Ibrohim, Muhammadjon Sodiq, Usmon Ismoil Torim, Qodir Akbarlar bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu mualliflarning aksariyati o'zbek bo'lib, chaqchaq san'ati ham ko'proq Qashqar va G'ulja hududlarida keng tarqalgan. XX asrning 50-yillarida To'xta Muhammad "Chaqchaq to'g'risida" nomli bir maqola yozgan bo'lsa-da, to 1980-yilga qadar boshqa bu masalaga oid birorta maqola yoki tadqiqot e'lon qilinmagan. 1980-yilda Ahmadjon Qurbon Soriyning "Ili daryosi" nomli jurnalda "Ili xalq chaqchaqlari haqida dastlabki mulohaza" maqolasi nashr bo'lgan. Shundan keyin Abdukarim Rahmon, Abdusattor Nosiriy, Shermuhammad Jo'rali, Anvar Tojiddin, G'uncham Qodir, Shavkat Alioxun kabi yozuvchilar, shuningdek, Jov Shiji, Tov Lifan, Vong Fan kabi xitoy tadqiqotchilari maqolalari ham chop etilgan [2, 117-b].

Xitoy manbalarida 1828-yilda birgina Qashqarning o'zida 715 xonadon yashaganligi yozilgan. 1987-yilda esa, ularning soni 3016 nafar qilib ko'rsatilgan. Qashqardagi o'zbeklarning aksariyati Farg'ona vodiysidan ko'chib kelishgan shu bois, ular orasida askiya san'ati keng tarqalgan [3, 87-b]. Uyg'urlar uni chaqchaq san'ati sifatida qabul qilgan bo'lishi mumkin deb taxmin qilinmoqda.

Inson kulgiga muhtoj, shuning uchun kishilar ikki xalqda bir maqol bor: “Bir marta kulsang, o‘n yil yasharasan” [4, 360-b]. Uyg‘urlarga xos bo‘lgan chaqchaqni o‘z turmushiga hamroh qilib, kelgan. Ular o‘zaro bir-biri bilan askiya qilishni boshlashganda, kulgi bilan boshlaydilar. Chaqchaq xuddi o‘zbeklardagi singari uyg‘urlarning to‘y bazmlari, xotira marosimlari, mehmondorchilik, xalq sayllari, do‘stlar davrasida asosiy o‘ringa chiqadi. Agar bunday tadbirlarda chaqchaq bo‘lmasa, uyg‘urlar bu marosimni “rohiblarning butxonadagi tilovati” bo‘ldi deb hazil qilishadi. Uyg‘urlar orasida “mulla Zayniddin latifalari”, “Saloy chaqqon latifalari”dan tortib, bugungi kundagi Hisomning latifalari keng tarqalgan. “Uyg‘urlarning so‘z san’atida chaqchaq janrining shunchalik avj olishi, ularning milliy psixologiyasida davom etayotgan xarakterning ifodalanishida uyg‘ur jamiyatining tabiiy geografiyasi sharoiti, iqtisodiy jarayonlari, ijtimoiy muammolari, tarixiy va madaniy omillari sabab bo‘lgan” [5, 360-b].

Uyg‘ur chaqchaq san’atida xuddi askiya san’ati kabi ikki tomonning hozirjavobliligi, mantiqliligi, qochirimliligi, yashirin mijozliligi, obyektivligi kabilar muhim rol o‘ynaydi. Har qanday vaqtda chaqchaq bir mavzuda, biror nishon yoki obyektga markazlashgan. Bu esa o‘zbeklardagi askiya san’ati bilan bir mazmundaligiga misol bo‘la oladi. Agar bir mavzu yoki obyektдан uzoqlashib ketsa chaqchaqning ma’naviy kuchi qolmasdan, kulgi paydo qilmaydi.

“Chaqchaq”ning turlari quyidagilardir:

1. “Uchum qilish”, ya’ni xarakterdagi chaqchaqlar. Aniq bir mavzu atrofida aylanib turgan doirada ichida chaqchaqlashish. Chaqchaqning bu xil shaklida biror shaxsning hayotidagi har bir epizod va qiziq sifatlarni, xarakterdagi o‘zgachaliklarni kulgiga tushirish, mubolag‘alashtirish orqali “odam” yasab chiqish “uchum qilish” deyiladi. Chaqchaqning ajoyib mahorati bilan o‘z obyektini “uchum” qilgandan keyin, oxirida epchil usul bilan uni qaytarib qatorga qo‘shib oladi. Natijada chaqchaqning obyekt, jumladan, boshqalar ham bunga hech qanday g‘ayrilik his qilmaydi.

2. “Laqablik chaqchaq”, ya’ni chaqchaqning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Uygʻurlarda shaxslarning xos ismlariga qandaydir bir laqabni qoʻshib atash odatga aylangan. Xalq orasida “laqabsiz kishi boʻlmas” degan ibora bor. Darvoqe, uygʻurlarda shaxsiy laqabdan boshqa, otadan bolaga, boladan bolaga meros qoldirgan avlodlar laqablar hamda bir mahalla yoki qishloq, shaharliklarning ham laqablari ham boʻladi. Laqablik chaqchaqda laqab egasiga laqabini toʻgʻridan-toʻgʻri tilga olmaydi. Turli soʻz oʻyini bilan yoki ishoralar bilan kulgi paydo qiladi. Tasavvur va tafakkur iqtidorining kuchli boʻlishi bunda talab qiladi [6, 87-b].

3. Maqol va tamsillik chaqchaqlar. Chaqchaqning bu turi koʻp hollarda laqablik chaqchaqlar bilan oʻxshab ketadi. Masalan, bir kishining laqabi “mol” boʻlib, u bir yigʻilishda bir nomaʼqul ish qilib qoʻysa, buni payqagan chaqchaqchi “molning mozori bilan ishi yoʻq” degan maqoldan foydalanish bilan chaqchaq boshlaydi. Chunki, har qanday maqo-tamsil paydo boʻlishi jihatdan yoʻnaltirish xususiyatiga ega hisoblanadi. Shuning uchun, chaqchaqchilar xalq ogʻzaki ijodidagi maqol va matallaridan, latifalardan, hikmatli soʻzlaridan xabardor boʻlishi bilan birga, ustalik bilan, oʻz oʻrnida qoʻllay olishi lozim. Bunga mahorat talab qiladi.

4. Chaqchaqning “oʻxshatish” shakli, askiya sanʼatidagi “oʻxshatish” shakli bilan bir xildir. Chaqchaqda obyekt sifatida olingan shaxsning qiyofasi, xulqi, koʻzga tashlanadigan gʻalati koʻrinishini turli gʻalati va kulgilik narsa, buyum, hayvon va qushlarga oʻxshatib, tenglashtirish va taqlid qilish usuli orqali chaqchaqni rivojlantiradi.

5. Qiyofali chaqchaq esa sheʼriy shaklidir. Qofiya orqali qiyofa yaratib chaqchaq aytiladi. Qiyofali chaqchaq uygʻur tilining fasohatini namoyon qilish bilan birga kishilarga badiiy lazzat beradi. Xalq orasida “qiyofaga kelganda undan qaytma” degan ibora bor. Bu qiyofa chaqchaq shaklining uygʻur xalqi orasida alohida eʼtibor bilan tilga olishadi.

6. “Soʻz oʻyini” ham chaqchaqning oʻziga xos turi boʻlib, u uygʻur tilidagi mubolagʻa, oʻxshatish, simvol, metafora kabi stilistik vositalarga tayanadi [7].

Xullas, xalq donishmandligining yuksak bir ifodasi bo'lgan chaqchaqda xalq tilining haqiqiy boyligi, rang-barangligi, ma'nodorligi, tasviriy kuchi kabi omillarini namoyon qiladi. Bu yerda shuni eslatish kerakki, haqiqiy ma'nodagi chaqchaq bilan odatdagi mazax qilish tenglashtirilmaydi. Ikkinchidan, ijobiy mazmunidan ko'ra, undagi ta'na va do'q qilish ifodasi yoki birovning zotiga, g'ururiga tegish, shaxsini kamsitish, masxara qilishga o'xshash salbiy mazmundagi fikrlar hukm suradi. Aksincha, chaqchaq ilmiy bo'lib, kishilarning dunyoqarashi, odob-axloq mezonlariga qattiq rioya qilinadi. Kishining aybini ochib, dilini ranjitishdan saqlanadi. Shunga uyg'urlar orasida chaqchaq jarayon, yoki obyektga qarab o'zgarib turadi. Katta va kichik yoshdagilarga, erkak va ayollarga chaqchaq qilishdan saqlanadi. Qisqasi, chaqchaq turmushga xushchaqchaqlik, mazmun berishni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov F., Akbarov Q. *Shinjong o'zbeklari tarixidan*. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 2011. – 106 b.
2. Muhammadjon S. *Uyg'ur xalq adabiyoti haqida*. – Urumchi: Shinjong xalq nashriyoti, 1995. – 175 b.
3. Usmon I. *Uyg'ur xalq og'zaki adabiyoti haqida bayon*. – Urumchi: Shinjong universiteti nashriyoti, 1998. – 220 b.
4. To'xta I. *Chaqchaq to'g'risida* // "Yosh kommunist" jurnali. – Toshkent, 1957. – №12. – B. 15-17.
5. Abdulkarim R., Odil Muhammad Q. *Uyg'ur folklor madaniyati*. – Shinjon: Qashqar uyg'ur, 2012. – 560 b.
6. Qodir A. *Chaqchaq tadqiqotimizning to'ng'ich sohibi* // Shinjong universiteti ilmiy jurnali. – Shinjong, 2015. – №1. – B. 116-125.
7. Qodir A. *Laqablik chaqchaq haqida* // Shinjong ijtimoiy fanlar tadqiqoti. – Shinjong, 2016. – № 2. – B. 86-92.
8. Qodir A. *Uyg'ur she'riyatida chaqchaq timsoli* // Shinjong ijtimoiy fanlar tadqiqoti. – Shinjong, 2016. – № 4. – B. 139-146.